

LANDSHAFTLARNI QISHLOQ XO'JALIK MAQSADLARIDA BAHOLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Xasanov Primjon Ashurovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti I-kurs doktoranti

primjonx88@mail.ru +998995848288

***Annotatsiya.** Bugungi kunda landshaftlarning holati, o'zgarishi, dinamikasi, barqarorligi va o'zini tiklash xususiyatlarini aniqlash - atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doimiy kuzatuv asosida olib borilishi lozim bo'lib, O'zbekiston hududi landshaftlarining qishloq xo'jalik tarmoqlariga "moyilligi" ancha rivojlangan. Jumladan agroiklimiy resurslarning qulay tomonlari qishloq xo'jaligi uchun landshaftlardan foydalanishda bir muncha qulaylik tug'diradi.*

***Kalit so'zlar.** landshaft, qishloq xo'jaligi, ekologik, atrof muhit, baholash, usul.*

***Абстрактный.** Сегодня необходимо определять состояние, изменение, динамику, устойчивость и характеристики самовосстановления ландшафтов – охрана окружающей среды и рациональное использование природных ресурсов должны осуществляться на основе постоянного мониторинга». В частности, благоприятные аспекты агроклиматических ресурсов облегчают использование ландшафтов в сельском хозяйстве.*

***Ключевые слова.** ландшафт, сельское хозяйство, экология, окружающая среда, оценка, метод.*

***Abstract.** Today, it is necessary to determine the state, change, dynamics, stability and self-restoration characteristics of landscapes - environmental protection and rational use of natural resources should be carried out on the basis of constant monitoring" is much more developed. In particular, favorable aspects of agro-climatic resources make it easier to use landscapes for agriculture.*

***Key words.** landscape, agriculture, ecological, environment, assessment, method.*

Kirish. O'zbekiston hududida ajdodlarimiz qishloq xo'jaligi tarmoqlarida shug'ullana boshlashganiga qariyb besh ming yillik tarixga borib taqaladi. O'tgan asrning 50-60 yillaridan landshaftlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Landshaftlarning chuqur o'rganilishi, tabiiy resurs salohiyatini aniqlash va iqtisodiy islohotlarni bir tizginga solish uchun ham kerak edi. Yurtimiz geograf olimlarining ham ilmiy izlanishlarida bu narsa kuzatila boshlangan. Ayniqsa, L.N.Babushkin va N.A.Kogay tomonidan O'zbekiston hududini qishloq xo'jaligi maqsadlarida tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlari bunga misoldir. O'zbekistonning birinchi landshaft xaritasi 1964-yilda nashrdan chiqdi. Ayni shu davrlarda landshaft-ekologik tamoyil rivojlanib, landshaftshunoslik ilmiy yo'nalishlari shakllandi. Bundan tashqari 60 yillarda N.D.Dolimov, O.Y.Poslavskaya, Ch.V.Galkovlar tabiiy geografik izlanishlarni turli jabhada davom ettirishgan

bo'lishsa, keyinchalik Sh.Zokirov, I.Hasanov, A.Zaynutdinov, A.Soatov, P.G'ulomov, M. Umarov, Y.Sultonov, A.Saidov, S.Nishonov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.Allaberganov, T.Jumaboev, A.Rafiqov, M.Quziboev, Sh.Ergeshovlar kabi olimlar davom ettirishdi.

Asosiy qism. Landshaftlarni chuqur o'rganish va baholash ishlari u yoki bu jarayon va omillarning ta'siri uzviy bog'langan murakkab tizimli aloqalar orqali kechadigan hamda o'ziga xos muhit hosil qiluvchi modifikatsion shakldan shaklga o'tuvchi holatini aks ettira oladigan ilmiy qarashlarga aytiladi. Inson atrof tabiiy muhitdan foydalanishi, o'zgartirishi va bu uzviylik asosida har hil munosabat shakllari paydo bo'lishi mumkin. Shu boisdan landshaftlarni yashash muhiti, salomatlik va faoliyat ko'rsatish nuqtayi nazaridan o'rganish, tahlil qilish hamda baholash lozim bo'ladi. Bunday baholash ishlari yurtimizda qishloq xo'jalik maqsadlarida juda ko'plab olib borilgan.

Bunday masalalarni hal qilishda ko'proq ekologiyaga, aniqrog'i, inson ekologiyasiga taalluqli ma'lumotlardan keng foydalanishga to'g'ri keladi. U yoki bu landshaftni qishloq xo'jaligi, uning biror tarmog'i nuqtayi nazaridan yoki o'sha 29 tarmoqda yetakchi hisoblangan o'simlik (masalan, paxta, don kabi) yoki hayvon turi (qo'y, echki, qoramol kabi) ning o'sishi, yashashi va unumdorligini oshirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa yoki baholansa, bu landshaftshunoslikda ekologik yondashish bo'ladi [1; 42 b].

Hozirgi kunda atrof muhit muhofazasi va landshaftlardan oqilona foydalanish masalalari global miqyosga ko'tarildi. Jahonda “yashil inqilob” asosida qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini tashkil etish va insoniyat oldidagi oziq ovqat muammosini bartaraf qilishning birdan bir yo'li sifatida qishloq xo'jaligi modernizatsiyasi asosida yangidan zamonaviy ilg'or texnologiyalar orqali muammoni oldini olish mumkin bo'lib qoldi. Shu bois landshaftlarni xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlarida baholash ishlari ma'lum bir vaqtda, inson ta'siri ostidagi o'zgarishlarga nisbatan zarur indeks hisoblanadi.

A.G. Isachenko baholashning maqsadidan kelib chiqib, ikki asosiy xilini yoki yo'nalishini aytib o'tgan. Birinchi xil baholashning asosiy maqsadi landshaftlarning xo'jalikda o'zlashtirish navbatini aniqlashdan, landshaftlardan foydalanishning eng yaxshi yo'nalishini ishlab chiqarish uchun baholash desa bo'ladi va yuqorida keltirilgan baholashlar ana shu turkumga kiradi. Baholashdagi ikkinchi yo'nalish ijtimoiy-ekologik baholash deb ataladi [2; 1;-143 b]. Ma'lum bir maqsad uchun baholash ishlari jamiyatning talabi asosida kechsada, bunda olingan baho o'sha vaqt va zamon uchungina xosdir. Biroz

vaqt orasida shu baholash ayni shu hududga mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari baholangan hudud bo'yicha olingan tajriba va ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, landshaftlarga baholashda berilgan ta'rif uning barcha qismlari uchun ham to'la to'kis mos deb bo'lmaydi. L.I.Muxinaning fikricha, tabiiy komplekslarni baholashning baholashning uchta jihati aniq bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan edi.

Landshaftlarni baholashning eng asosiy maqsadi shu landshaftlarning o'zlashtirish navbatlarini, ulardan foydalanishning eng qulay va yaxshi variantlarini aniqlab berishdan iborat. Bunday maqsadda olib borilgan baholash ishlari ishlab chiqarish uchun bajarilgan baholash deyiladi [1; 132 b]. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bo'yicha baholash ishlarini olib borgan olimlardan A.A.Vidina, Y.N.Seselchuk, K.I.Gerenchuk, N.V.Kopekov, L.N.Babushkin, N.A.Kogay kabilarning ishlarida baholashning metodologik asosini ko'rish mumkin. Qishloq xo'jaligi maqsadlari bo'yicha baholash ishlarida joyning tabiiy sharoiti, uning funksional jihatlarini aniqlash hamda eng maqbul ekin turlarini joriy etishni tashkil qilishi mumkin. Baholash L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning ta'kidlashicha tabiiy geografik xaritalar asosida olib borilishi lozim. Landshaft komponentlarining bir butunligi, umumiy faza ko'rinishi va rayonlashtirish asnosida xaritaga tushirilgan ma'lumotlar gavdalanadi hamda agroiqlimiy ko'rsatkichlar ham muhim rol o'ynaydi. Bizga ma'lumki landshaftlarni qishloq xo'jalik maqsadlarida baholash ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan iqlim, tuproq va relyef, asos qilib olinadi. Ushbu komponentlarning boshqa komponentlarga solishtirma darajasi uning baholash obyektiga qarab o'zgarishi mumkin bo'ladi. Qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoitni mazkur komponentlarning o'rnisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida tabiiy sharoitni baholash uchun landshaftlardan unga ta'siri yuqori bo'lgan xususiyatlarini aniqlab olishdan iborat bo'lib, ko'proq landshaft-ekologik tamoilga asoslanadi. Agroiqlimiy baholash masalalari bilan yurtimizda N.N.Ivanov, G.T.Selyaninov, I.A.Goltsberg, D.I.Shashko, P.I.Koloskov, L.N.Babushkin kabi agroiqlimshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Landshaftlarni baholash obyekti va baholash indikatori doimo inson ehtiyojiga qarab turlicha natijaga asoslanadi. Masalan, yaylov chorvachiligida o'simlik qoplami muhim ahamiyatga egadir. A.G.Isachenkoning (1991) fikricha, hozirgi zamon landshaftlarning ko'pchiligi insonning nooqilona faoliyati natijasida o'zgartirilgan bo'lib, ularni madaniy landshaftlarga aylantirish lozimdir [3;].

Xulosa. Qishloq xo‘jalik ekinlarining o‘ssishi uchun landshaft komponentlarining turlicha ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki o‘simlik qoplami uchun zarur radiatsiya balansi, namlik va boshqa ko‘rsatkichlar baholash ishlarida inobatga olinishi kerak bo‘ladi. Agar sug‘orma dehqonchilikda namlik sun‘iy tarzda bajarilsa demak radiatsiya balansi bilan bog‘liq jarayon kuzatiladi. Yurtimizda tabiiy geografik rayonlashtirish masalasida jonbozlik ko‘rsatgan olim L.N.Babushkin, agroiklimiy baholash ishlarida ekin turlaridan paxtani indikator qilib oladi. Bunda olim vegetatsiya davri, namlik, g‘o‘zaning 50%i qismining pishib yetilishi uchun zarur barcha jarayon va hodisalarni kuzatgan edi. Albatta iqtisodiy tarafdin qaralsa qishloq xo‘jaligini rivojlantirish zaruriy choralarini yanada chuqurlashtirishni ko‘zda tutadi. Biroq, atrof muhit muhofazasining ma‘lum bir kategoriyalariga ham quloq solinishini taqoza etadi. Chunki kishilik jamiyatining ertangi kuni uchun ham, landshaftlarni tabiiy holda saqlashning baholashga oid tomonlarini tizimli sxematikasi tuzilishi va qishloq xo‘jaligida foydalanilishi kerak. Landshaftlar, insoniyatga oziq-ovqat muammosini hal qilishdagi o‘rnini to‘ldirishda qishloq xo‘jaligi orqali amaliy harakati kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishlar landshaftlardagi tabiiy o‘simlik va hayvonot xilma-xilligini yo‘qotishi, o‘rniga ehtiyojga mos o‘simlik hamda hayvonotning ma‘lum bir turlarini ko‘paytirishga intiladi. Bu esa, o‘simliklar va hayvonot dunyosining soddalashuvi hamda ekotizim aloqadorliklari buzilishiga olib keladi. Provard natijada, qishloq xo‘jaligida paydo bo‘ladigan har hil muammolar yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.С.Зокиров «Ландшафтшунослик асослари» Тошкент_2010. «Университет».
2. Исаченко А.Г. Методы прикладных ландшафтных исследований. -Л., 1980.
3. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. -М., 1991.
4. U.A.Karabekov. “Qishloq xo‘jaligi va landshaft kartalarini yaratishda GAT dasturlarini qo‘llash tehnologiyasini takomillashtirish”. “Science and education”/ISSN 2181 – 0842. 2022 February/Volume 3, issue 2.
5. «Агрolandshaftные исследования: теория и практика» научные ведомости серия Естественные науки. 2011. № 15(110). Выпуск 16. 217.
6. P.A.Xasanov “Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikasiyalanishi va agrolandshaftlar o‘rganilish tarixi” "Экономика и социум" №12(115) 2023 www.iupr.ru
7. www.AGRO.uz